

**ZAMONAVIY YOSHLAR VA AXBOROT PSIXOLOGIK XAVFSIZLIGI MASALALARI**

**M.J.Maxammatova**  
**ADPI, Pedagogika va psixologiya**  
**kafedrası katta o’qituvchisi**  
**Toshmatova Gulyora Muhitdin qizi**  
**Biologiya yo’nalishi 2- bosqich talabasi**

**Annotasiya :** Ushbu maqolada XXI asrda shaxs, jamiyat va davlat taraqqiyotida axborot resurslari va texnologiyalarining rolini ortishi natijasida O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatini axborotlashtirilgan jamiyat sifatida qurilish masalasini hal etish juda dolzarb masaladir.[1.] Kelajak-yoshlar qo‘lida ekan, demak, biz urg‘uni aynan yoshlarga qaratishimiz kerak. Ular bugun nima bilan band ekanligini, qanday saytlardan foydalanayotganligini muntazam ravishda nazoratga olish kerakligi haqida fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Axborot xavfsizligi, axborot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kommunikatsiya tarmoqlari, dasturiy mahsulotlar

Axborot xavfsizligi (inglizcha Information Security) axborotni ruxsatsiz kirish, foydalanish, oshkor qilish, buzish, o‘zgartirish, tadqiq qilish, yozib olish yoki yo‘q qilishning amaliyotidir.

Axborot - manbalari va taqdim etilish shaklidan qat’iy nazar shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar, to‘g‘risidagi ma’lumotlar; axborotni muhofaza etish - axborot borasidagi xavfsizlikka tahdidlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish chora-tadbirlari. [2.]

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan bu davrda har qanday davlatning axborot resurslari uning iqtisodiy va harbiy salohiyatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Mazkur resurslardan samarali foydalanish mamlakat xavfsizligini va demokratik axborotlashgan jamiyatni muvofaqiyatli shakllantirilishini ta’minlaydi. Axborot xavfsizligi tizimi davlatning axborot sohasidagi siyosatini mamlakatda milliy xavfsizlikni ta’minlash davlat siyosati bilan chambarchas bog‘laydi. Bunda axborot xavfsizligi tizimi davlat siyosatining asosiy tashkil etuvchilarini yaxlit bir butunlikka biriktiradi.

O‘zbekiston Respublikasida 2015- yilning 4-fevral kuni e’lon qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmonga ko‘ra, Axborot xavfsizligini ta’minlash va kommunikatsiya tarmoqlari, dasturiy mahsulotlar, axborot tizimlari va resurslarini himoya qilishning zamonaviy texnologiyalarini tadbiq etish chora-tadbirlarini amalga oshirish, axborot resurslarini himoya qilishbo‘yicha texnik infratuzilmani yanada rivojlantirish”ustuvor vazifalardan biri sifatida qayd etilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2002- yil 12-dekabrda “Axborot erkinligi prinsplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunida axborot xavfsizligi axborot borasidagi xavfsizlik deb belgilangan va u axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining himoyalanganlik holatini anglatadi.

Bugungi kunda axborot xavfsizligini ta’minlaydigan 3 ta asosiy tamoyil mavjud:

**“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.**

- Ma’lumotlar butunligi-axborotni yo’qotilishiga olib keluvchi buzilishlardan, shuningdek, ma’lumotlarni mualliflik huquqi bo’lmagan holda hosil qilish yoki yo’q qilishdan himoya qilish;

- Axborotning konfidentsialligi-axborot va axborot tashuvchining holatini belgilaydi, va unda axborot bilan ruxsatsiz tanishishning yoki uni ruxsatsiz hujjatlashtirishning (nusxa olishning) oldini olish ta’minlangan bo’ladi;

- Foydalanish huquqlariga ega barcha foydalanuvchilar axborotdan foydalana olishlari [2.]

Takidlash joizki, ayrim faoliyat sohalari(bank va moliya institutlari, axborot tarmoqlari, davlat boshqaruv tizimlari, mudofaa va mahsus tuzilmalar) ularda ko’riladigan masalalarning muhimligi va harakteriga ko’ra ularning axborot tizimlari faoliyati ishonchligiga nisbatan yuqori talablar va xavfsizlik bo’yicha maxsus choralar ko’rilishini talab etadi. [3.]

Xavfsizlik siyosati – xavfsizlik obyekti va subyekting berilgan ko’pligining xavfsizligini ta’minlash protseduralari va mexanizmlarini belgilovchi qoidalar to’plami. Axborotni muhofaza qilish keng ma’noda axborot xavfsizligiga tahdidni oldini olish va ularning asoratlarini yo’q qilishga qaratilgan tashkiliy, huquqiy va texnik choralar kompleksini bildiradi. [4.]

Xulosa o’rnida shuni aytish kerakki, bugungi kunda axborotga hujumlar juda ko’payib ketgan. Kiberjinoyat, xakerlar, krekerlar, terroristik guruhlar, axborotlar urushi avj olib kelmoqda. Eng achinarli tomoni aksariyati yoshlardan iborat. Ular aslida huquqbuzarlik qilayotganligini bilmay qolishadi. Sekin astalik bilan fuqarolarning shaxsiy hayot daxlsizligi huquqidan mahrum qilish; intellektual mulk obyektlariga tahdid; axborotlashtirilgan jamiyatni qurishga to’siqlar; jamiyatning ma’naviy yangilanish, uning manaviy an’analarini rivojlantirish, milliy, madaniy merosini targ’ib qilish; axloq me’yorlari huquqlaridan mahrum qilish; mamlakat ilmiy va ishlab chiqarish potensialining rivojiga qarshilik qilish kabi bir qator huquqbuzarlikka sababchi bo’lishadi. Demak, yoshlar bilan ishlashda ularning qiziqishlarini e’tiborga olib, ularning bo’sh vaqtini mazmunli o’tkazish, qolaversa, huquq va tamoyillarni hozirdan o’rgatib borish maqsadga muvofiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Axborot xavfsizligi asoslari” darslik. Karimov.I.M, Turgunov.N.A Toshkent- 2016 yil.
2. “Axborot xavfsizligi asoslari” O’quv qo’llanma. Tahirov B.N, Buxoro 2022-yil.
3. “Axborot xavfsizligi asoslari” ma’ruzalar matni. Toshkent 2013-yil.
4. Jalilovna, M. M.(2024). Shaxsga yo’naltirilgan ta’lim modelini amalga oshirish uchun tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari. ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali, 4(2), 130-133.
5. Xosilbekovna, S. F. (2024). The impact of globalization on the manifestation of aggressive behavior in adolescence. *Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali*, 4(2), 134-137.